O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND SHAHAR HOKIMINING QARORI

2023 - yil 4 - oktabr 457-7-107-Q/23 Samarqand shahar hokimligi

Samarqand viloyati hokimining 2023-yil 13-sentabridagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 24-avgust kuni Samarqand viloyatiga tashrifi davomida va viloyat faollari ishtirokida o‘tkazilgan 25-sonli yig‘ilish bayonida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash haqida”gi 252-7-0-Q/23-sonli qarori haqida

Samarqand shahrini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlarni ishga solish, investitsiyalarni jalb etish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish, yoshlarga xorijiy til hamda kasb-hunarlarni o‘rgatish uchun qulay sharoitlar yaratish, hududlarda islohotlarni to‘laqonli ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Samarqand viloyati hokimining 2023-yil 13-sentabridagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 24-avgust kuni Samarqand viloyatiga tashrifi davomida va viloyat faollari ishtirokida o‘tkazilgan 25-sonli yig‘ilish bayonida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash haqida”gi 252-7-0-Q/23-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 24-avgust kuni Samarqand viloyatiga tashrifi davomida va viloyat faollari ishtirokida o‘tkazilgan 25-sonli yig‘ilish bayoni ijrosini ta’minlash bo‘yicha “nazorat rejasi” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar hokimining o‘rinbosarlari (D.Xabibullayev, F.Najmiddinov, O.Xaitov, E.Radjabov, Z.Saidova) shahar korxona va tashkilot rahbarlariga nazorat rejada belgilangan vazifa va topshiriqlarni o‘z muddatida va sifatli ijrosini ta’minlash yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklatilsin.

4. Shahar hokimining o‘rinbosarlari (D.Xabibullayev, F.Najmiddinov, O.Xaitov, E.Radjabov, Z.Saidova) tegishli mas’ul korxona va tashkilotlar bilan birgalikda 2 kun muddatda shaharni joriy yil yakuniga qadar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlar dasturlarini tasdiqlasinlar.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2023-yil 24-avgust kuni

Samarqand viloyatiga tashrifi davomida va viloyat faollari ishtirokida o‘tkazilgan 25-sonli yig‘ilish bayoni Samarqand shahri bo‘yicha ijrosini ta’minlash bo‘yicha viloyat hokimining mazkur qarori bilan Samarqand shahriga mas’ul etib viloyat hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari A.Shukurov belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Shahar hokimligi ijro nazorati bo‘limi (O.Maxmudov) yig‘ilish bayonida berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida to‘liq bajarilishini qat’iy nazoratga olsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Samarqand shahar hokimi **F.Umarov**

Samarqand shahar hokimining
2023-yil 4-oktabrdagi
457-7-107-Q/23-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 24-avgust kuni Samarqand viloyatiga tashrifi davomida va viloyat faollari ishtirokida o‘tkazilgan 25-sonli yig‘ilish bayonida (2023-yil 5-sentyabr № 03-PA 1-12580) berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash yuzasidan

NAZORAT REJASI

T/r	Berilgan topshiriq vazifalar	Ijro muddati	Mas’ullar	
			Shahar hokimligidan	Shahar korxona va tashkilotlaridan
I. Oqdaryo tumanidagi 32-son umumta’lim maktabida berilgan topshiriqlar				
1.	**4-band.** Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (Umarova), Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov) **2023/2024-o‘quv yilidan** boshlab viloyatdagi **6 ta** maktabda yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi, 15 ta maktabda Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablar ta’lim dasturlari asosida ta’lim jarayonlarini yo‘lga qo‘ysin.	2023/2024-o‘quv yilida	O.Xaitov	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Saidov)
2.	**5-band.** Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (Umarova), Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov) tuman (shahar)lar hokimlari bilan birgalikda Oqdaryo tumanidagi 32-son umumta’lim maktabida joriy etilgan ikkita xorijiy til va kasblarni o‘rgatish tajribasini viloyat bo‘yicha har bir tuman (shahar)da bittadan maktabda tatbiq etsin. Bunda: **bir hafta muddatda** viloyatning tuman (shahar)lar hokimlari uchun 32-maktab tajribasini ommalashtirish bo‘yicha seminar-taqdimot o‘tkazsin;	Bir hafta muddatda	O.Xaitov	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Saidov)
	2023/2024-o‘quv yilida Samarqand viloyatining tanlab olingan maktablari 10-11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazib, natijalari asosida kasblarga o‘rgatishni tashkil etsin;	2023/2024-o‘quv yilida		
	2023/2024-o‘quv yilida tuman (shahar)lar hokimlari hududning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, 32-son ummumta’lim maktabi tajribasi asosida kasblarni o‘rgatish uchun zarur jihozlar va xomashyo bilan ta’minlab borish choralarini ko‘rsin.	2023/2024-o‘quv yilida		

T/r	Berilgan topshiriq vazifalar	Ijro muddati	Mas'ullar	
			Shahar hokimligidan	Shahar korxona va tashkilotlaridan
II. "Aziya metall prof" qo'shma korxonasi faoliyati bilan tanishish jarayonida berilgan topshiriqlar				
3.	**12-band.** Bosh vazir o'rinbosari J.Xodjayev, Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov), "Aziya metall prof" MChJ qo'shma korxonasida maishiy elektrotexnika va avtomobilsozlik uchun metall list mahsulotlari hamda zanglamaydigan nikel qoplamali metall quvurlar, profil va listlar ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirish uchun **joriy yil yakuniga qadar** Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi hisobidan 100 mln dollar mablag' ajratish choralarini ko'rsin.	2023-yil 25-dekabr	E.Radjabov	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi (Muxammadqulov)
III. Yig'ilishda berilgan topshiriqlar				
Iqtisodiyot sohalarini rivojlantirish				
4.	**25-band.** Viloyatni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini muvofiqlashtirish maqsadida tuman va shaharlarga Bosh vazir o'rinbosarlari J.Qo'chqorov va J.Xodjayev hamda mutasaddi vazirliklar, idoralar va tijorat banklari **1-ilovaga** muvofiq biriktirilsin.		D.Xabibullaev, E.Radjabov	Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Mamadaliyev), Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi (Muxammadqulov)
5.	**26-band.** Bosh vazir o'rinbosari J.Xodjayev, Tashqi ishlar vazirligi (Saidov), Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (Kudratov), Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov) **joriy yil yakuniga qadar** Turkiya davlatining tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi ijobiy tajribasini Samarqand viloyatida joriy qilish maqsadida Turkiyaning 2 ta hududi bilan viloyat tadbirkorlari o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish yuzasidan amaliy choralarni ko'rsin.	2023-yil 25-dekabr	E.Radjabov	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi (Muxammadqulov)

T/r	Berilgan topshiriq vazifalar	Ijro muddati	Mas'ullar	
			Shahar hokimligidan	Shahar korxona va tashkilotlaridan
6.	**27-band.** Bosh vazir o'rinbosari J.Qo'chqorov, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (Musayev) Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov) bilan birgalikda **joriy yilda** viloyatda 450 ming aholini band qilib, kamida 25 mingta oilani kambag'allikdan chiqarish yuzasidan barcha zarur choralarni ko'rsin. Bunda, Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov): Bosh vazir o'rinbosari J.Xodjayev, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (Kudratov) bilan birgalikda viloyatda 2,5 mlrd dollarlik 1 600 ta loyihani ishga tushirib, 20 mingta yangi ish o'rni yaratsin; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining agrar rivojlanish masalalari bo'yicha maslahatchisi Sh.G'aniyev, Qishloq xo'jaligi vazirligi (Voitov), Suv xo'jaligi vazirligi (Xamrayev), O'rmon xo'jaligi agentligi (Bakirov) bilan birgalikda qishloq, suv va o'rmon xo'jaligida 235 ming aholini daromadli qilish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin; Iqtisodiyot va moliya vazirligi J.Qo'chqorov, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (Musayev), Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi (Ubaydullayev), Turizm qo'mitasi (Shodiyev) hokim yordamchilari bilan birgalikda 195 ming aholini xizmat ko'rsatish, turizm va tadbirkorlik yo'nalishida bandligini ta'minlasin.	2023-yil davomida	D.Xabibullaev, E.Radjabov, O.Xaitov, F.Najmiddinov	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Qodirov), Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi (Muxammadqulov), Madaniyat va turizm bo'limi (Maxmudova) va hokim yordamchilari
7.	**28-band.** Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (Musayev), Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi (Ubaydullayev) **joriy yil yakuniga qadar** viloyatda yana 15 ming aholini kasb-hunarga va tadbirkorlikka o'qitish orqali bandligini ta'minlasin, shuningdek, 3 ming nafariga mehnat qurollari sotib olish uchun subsidiyalar ajratsin.	2023-yil 25-dekabr	D.Xabibullaev	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Qodirov), Savdo-sanoat palatasi (Kabilov)
8.	**30-band.** Bosh vazir o'rinbosari J.Qo'chqorov, Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov) **bir hafta muddatda** viloyatdagi mavjud sanoat zonalarining infratuzilma bilan bog'liq muammolarini hal etishga qo'shimcha 50 mlrd so'm, har bir tumanda elektr, yo'l, suv va boshqa infratuzilmani yaxshilashga yana 50 mlrd so'm yo'naltirsin.	Bir hafta muddatda	D.Xabibullaev, E.Radjabov	Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Mamadaliyev)

T/r	Berilgan topshiriq vazifalar	Ijro muddati	Mas’ullar	
			Shahar hokimligidan	Shahar korxona va tashkilotlaridan
9.	**31-band.** Bosh vazir o‘rinbosari J.Xodjayev, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (Kudratov) **joriy yil yakuniga qadar**: Samarqand viloyati hokimligi (Haydarov) bilan birga sanoat zonalaridagi 620 gektar bo‘sh yerlarga tadbirkorlarni jalb qilsin; “O‘zsanoatqurilishbank” (Annaqlichev) bilan birgalikda qurilish materiallari bo‘yicha 500 mln dollarlik 60 ta loyihani ishga tushirish choralarini ko‘rsin.	2023-yil 25-dekabr	E.Radjabov	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi (Muxammadqulov)
10.	**33-band.** Bosh vazir o‘rinbosari J.Xodjayev, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (Kudratov), Tashqi ishlar vazirligi (Saidov), Turkiyadagi elchi (Agzamxo‘jayev), Eron (Abdullayev), Qozog‘iston (Niyozxo‘jayev), Xitoy (Arziyev) va boshqa davlatlardagi elchilar bilan birgalikda **joriy yil yakuniga qadar** viloyatdagi 16 ta tuman va shaharning har birida yirik sanoat loyihalarini amalga oshirish uchun xorijiy investorlarni jalb qilsin.	2023-yil 25-dekabr	E.Radjabov	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi (Muxammadqulov)
11.	**34-band.** Ichki ishlar vazirligi (Bobojonov), Milliy gvardiya (Jo‘rayev) Samarqand shahridagi umumiy ovqatlanish va ko‘ngilochar maskanlarni kun-u tun ishlashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratsin.	2023-yil 25-dekabr	D.Xabibullaev, O.Xaitov	Shahar bo‘yicha ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (Ibragimov)
12.	**35-band.** Bosh vazir o‘rinbosari J.Xodjayev, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (Kudratov), Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatdagi barcha shahar va tuman hokimlari **joriy yilda** o‘z hududiga 100 mln dollar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha “yo‘l xarita”sini ishlab chiqib, ijrosini ta’minlash chorasini ko‘rsin.	2023-yil 25-dekabr	E.Radjabov	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi (Muxammadqulov)
13.	**36-band.** Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (Musayev) viloyatda tadbirkorlikni rivojlantirish, sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi sohalarida yangi loyihalarni amalga oshirish hisobiga **joriy yil yakuniga qadar** 60 ming nafargacha migrantlarni qaytarish choralarini ko‘rsin.	2023-yil 25-dekabr	D.Xabibullaev, E.Radjabov	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (Qodirov), Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi (Muxammadqulov)

T/r	Berilgan topshiriq vazifalar	Ijro muddati	Mas'ullar	
			Shahar hokimligidan	Shahar korxona va tashkilotlaridan
14.	**37-band.** Bosh vazir o‘rinbosari J.Xodjayev, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (Kudratov), Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov) **joriy yil yakuniga qadar** viloyatning qo‘shimcha imkoniyatlarini ishga solgan holda eksport hajmini 850 mln dollarga yetkazsin.	2023-yil 25-dekabr	E.Radjabov	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi (Muxammadqulov)
15.	**38-band.** Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (Xodjayev), O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi (Xadjayev), Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov) **bir hafta muddatda** shahar va tumanlar sektorlar rahbarlari, vazirliklar, idoralar va tijorat banklaridan shahar va tumanlarga biriktirilgan vakillar o‘z hududida yil yakuniga qadar yangi ish o‘rinlari yaratish, investitsiyalarni jalb qilish, migrantlarni qaytarib, doimiy ish o‘rinlari bilan ta’minlash, jinoyatchilikni jilovlash kabi yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan ishlari yuzasidan ommaviy axborot vositalari orqali **aholiga murojaat qilishini ta’minlasin**.	Bir hafta muddatda	A.Po‘latov	Sektor rahbarlari
Turizmni rivojlantirish				
16.	**39-band.** Transport vazirligi (Mahkamov), Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov) **joriy yil yakuniga qadar**: aholi va sayyohlarga xizmat ko‘rsatish uchun viloyatda kamida 50 ta zamonaviy elektrobuslar harakatini yo‘lga qo‘ysin; 20 ta yangi avtobus yo‘nalishi, shuningdek, aeroport, temiryo‘l vokzali va tarixiy markazlarni bog‘laydigan 3 ta ekspress avtobus yo‘nalishini tashkil qilsin.	2023-yil 25-dekabr	D.Xabibullaev, E.Radjabov, O.Xaitov	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi (Muxammadqulov), Madaniyat va turizm bo‘limi (Maxmudova)
17.	**40-band.** Bosh vazir o‘rinbosari J.Qo‘chqorov, Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov) **joriy yilda** Samarqand viloyati, jumladan, Samarqand shahri mahallalarida turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun qo‘shimcha 25 mlrd so‘m ajratsin.	2023-yil 25-dekabr	D.Xabibullaev, O.Xaitov	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Mamadaliyev), Madaniyat va turizm bo‘limi (Maxmudova)

T/r	Berilgan topshiriq vazifalar	Ijro muddati	Mas'ullar	
			Shahar hokimligidan	Shahar korxona va tashkilotlaridan
18.	**43-band.** Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (Abduhakimov), Turizm qo'mitasi (Shodiyev), Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda mavjud imkoniyatlarni ishga solib, **joriy yil yakuniga qadar**: viloyatga 4,4 mln nafar (shundan 2,1 mln. xorijiy) turistlarni jalb qilsin; turizm xizmatlari eksportini 400 mln dollarga yetkazsin;	2023-yil 25-dekabr	O.Xaitov, F.Najmiddinov	Madaniyat va turizm bo'limi (Maxmudova), Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi (G'aniyev)
	turizmga ixtisoslashgan tuman va shahar hokimlari **ikki hafta muddatda** turistlarni jalb qilish yuzasidan aniq reja ishlab chiqib, ularni hududda bo'lish vaqtini qo'shimcha 2 kunga uzaytirish bo'yicha choralarni ko'rsin.	Ikki hafta muddatda		
Elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash				
19.	**44-band.** Bosh vazir o'rinbosarlari J.Qo'chqorov, J.Xodjayev **joriy yil yakuniga qadar** xalqaro moliya institutlari bilan muzokaralar olib borib, viloyatda aholi va ulgurji iste'molchilarni uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadida **2-ilovada** keltirilgan manzilli dasturni amalga oshirish uchun 15 mln dollar jalb etsin.	2023-yil 25-dekabr	D.Xabibullaev, E.Radjabov, F.Najmiddinov	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi (Muxammadqulov), "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ filiali (Mutalibov) Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Mamadaliyev)
20.	**45-band.** Energetika vazirligi (Mirzamahmudov), Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov) **joriy yil yakuniga qadar** Kattaqo'rg'on tumani va Samarqand shahrida quvvati 250 MVt bo'lgan 2 ta quyosh elektr stansiyasini ishga tushirib, 2024-yilda 650 mln kVt.soat elektr energiya defitsitining bir qismini 2 ta quyosh elektr stansiyasi hisobiga (560 mln kVt.soat) qoplasin.	2023-yil 25-dekabr	F.Najmiddinov	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi (Muxammadqulov), "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ filiali (Mutalibov)
	2024-2026-yillarda yana 1,5 ming MVt.li 2 ta quyosh va 1 ta shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish choralarini ko'rsin.	2024-2026-yillarda		

T/r	Berilgan topshiriq vazifalar	Ijro muddati	Mas'ullar	
			Shahar hokimligidan	Shahar korxona va tashkilotlaridan
21.	**46-band.** Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov), tuman va shahar hokimlari 2023-yil sentyabr-dekabr oylarida kutilayotgan 60 mln kVt.soat elektr energiya defitsiti o'rnini qoplash uchun: aholi xonadonlari, korxona va ijtimoiy soha obyektlarida 27 MVt quvvatli quyosh panellari o'rnatsin (10 mln kVt.soat); yo'qotishlarni kamaytirish hisobiga energiya samaradorlikni 40 mln kVt.soatga oshirish orqali yana 10 mln kVt.soat elektr energiyasini iqtisod qilsin.	2023-yil sentyabr-dekabr oylarida	F.Najmiddinov, D.Xabibullaev, E.Radjabov	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi (Muxammadqulov), "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ filiali (Mutalibov) Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Mamadaliyev)
22.	**47-band.** Bosh vazir o'rinbosari J.Qo'chqorov, Energetika vazirligi (Axmedxodjayev), Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov) **bir oy muddatda** viloyat elektr ta'minoti tizimini yaxshilash bo'yicha uch yillik dastur ishlab chiqsin. Bunda, Samarqandda respublikada eng yirik 500 kVt. kuchlanishli podstansiya qurish va Samarqanddan Toshkent viloyatigacha 300 kilometr yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari tortish ko'zda tutilsin (Nurobodda "ACWA Power" tomonidan 1,0 ming MVt quvvatli quyosh elektr stansiyasi qurish loyihasi doirasida investor 230 mln dollar yo'naltirsin).	Bir oy muddatda	D.Xabibullaev, F.Najmiddinov, E.Radjabov	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi (Muxammadqulov), "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ filiali (Mutalibov) Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Mamadaliyev)
Ijtimoiy sohani rivojlantirish				
23.	**48-band.** Yoshlar siyosati va sport vazirligi (Ikramov, Sa'dullayev), Davlat xavfsizlik xizmati (Jo'rayev): **o'n kun muddatda** yoshlar bilan ishlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ko'zda tutgan holda "Samarqand tajribasi"ni joriy etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga taklif kiritsin.	10 kun muddatda	O.Xaitov	Yoshlar ishlari agentligi bo'limi (Meliyev)
	15 kun muddatda viloyatda yoshlar balansini qayta ko'rib chiqib, yangidan shakllantirsin.	15 kun muddatda		

T/r	Berilgan topshiriq vazifalar	Ijro muddati	Mas'ullar	
			Shahar hokimligidan	Shahar korxona va tashkilotlaridan
24.	**49-band.** Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Qo'chqorov), Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov) **15 kun muddatda** madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish bo'yicha "Samarqand tajribasi"ning yangi konsepsiya loyihasini ishlab chiqsin. Bunda, quyidagilar nazarda tutilsin: konsepsiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'yicha moliyalashtirish mexanizmini yaratish; Samarqand viloyatida Ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish direksiyasini tashkil etish; madaniy-ma'rifiy faoliyatni rivojlantirish loyihasini amalga oshirish; teatrlarga aholini keng jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish; ushbu maqsadlar uchun 2024-yildan boshlab 50 mlrd so'm mablag'larni bosqichma-bosqich ajratish.	15 kun muddatda	O.Xaitov	Madaniyat va turizm bo'limi (Maxmudova), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Mamadaliyev)
25.	**50-band.** Bosh vazir o'rinbosari A.Ramatov, Madaniy meros agentligi (Abdukarimov), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (Zakirov), Turizm qo'mitasi (Shodiyev) **bir oy muddatda** Amir Temur jome' masjidini rekonstruksiya qilish, Bibixonim hamda shoh va shahzodalarni tarbiya qilgan ayollar muzeylarini Samarqand muzey qo'riqxonasi filiali sifatida tashkil etish bo'yicha loyiha takliflarini ishlab chiqib, belgilangan tartibda kiritsin.	Bir oy muddatda	O.Xaitov, F.Najmiddinov	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (Djumayev), Madaniyat va turizm bo'limi (Maxmudova)
26.	**51-band.** Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Boboyev), Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi (Umerova), Madaniy meros agentligi (Abdukarimov), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (Zakirov) bilan birgalikda **ikki hafta muddatda** Bibixonim majmuasi va unga tutash hududda joylashgan madaniy meros obyektlarini restavratsiya va rekonstruksiya qilish maqsadida texnik shartlarni tayyorlash, loyihalashtirish va qurilish-montaj ishlariga ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan xorijiy restavrator (mutaxassis) hamda tashkilotlarni eng yaxshi takliflarni tanlab olishni nazarda tutuvchi tegishli hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.	Ikki hafta muddatda	O.Xaitov, F.Najmiddinov	Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Mamadaliyev), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (Djumayev)

T/r	Berilgan topshiriq vazifalar	Ijro muddati	Mas'ullar	
			Shahar hokimligidan	Shahar korxona va tashkilotlaridan
27.	**52-band.** Ichki ishlar vazirligi (Bobojonov), Milliy gvardiya (Djurayev), Bosh prokuratura (Yo'ldoshev) bilan birgalikda: **o'n kun muddatda** mavjud videokuzatuv kameralarini Samarqand viloyati IIB Vaziyatlar markaziga integratsiya qilish;	10 kun muddatda	O.Xaitov	Shahar Prokuraturasi (Oblakulov), shahar bo'yicha ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i (Ibragimov)
	2024-yil yakuniga qadar "Xavfsiz shahar" konsepsiyasi asosida aholi va turistlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida Samarqand shahrining har bir mahallasida hamda aholi gavjum joylarda videokuzatuv tizimlari o'rnatilishini va Samarqand viloyati IIB Vaziyatlar markaziga integratsiya qilinishi ta'minlansin.	2024 yil yakuniga qadar		
	Samarqand viloyati Prokuraturasi (Eshnazarov), Samarqand viloyati Ichki ishlar boshqarmasi (Mamatov) **joriy yil yakuniga qadar** Samarqand shahridagi kriminogen vaziyatni chuqur tahlil qilib, shahar misolida viloyatni jinoyatchilikdan holi hududga aylantirish choralarini ko'rsin.	2023-yil 25-dekabr		
28.	**54-band.** Bosh vazir o'rinbosari J.Qo'chqorov, Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Norqulov), Suv xo'jaligi vazirligi (Xamrayev), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (Zakirov) **bir hafta muddatda** Samarqand shahar hududidagi 22 km kanal, kollektor va irrigatsiya tarmoqlarini ta'minlashga zarur bo'lgan 44 mlrd so'm mablag'larni ajratish bo'yicha asoslantirilgan taklif kiritsin.	Bir hafta muddatda	F.Najmiddinov	Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Mamadaliyev), "Samarqand suv ta'minoti" MChJ shahar filiali (Zugurov), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (Djumayev)
29.	**61-band.** Bosh vazir o'rinbosarlari J.Qo'chqorov, J.Xodjayev manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda **uch kun muddatda** mazkur bayonga 1-ilova bilan tasdiqlangan taqsimotga muvofiq alohida har bir shahar va tumanning joriy yil yakuniga qadar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlar dasturlarini tasdiqlab, ijrosini ta'minlasin.	Uch kun muddatda	D.Xabibullaev, E.Radjabov	Shahardagi korxona va tashkilot rahbarlari

T/r	Berilgan topshiriq vazifalar	Ijro muddati	Mas’ullar	
			Shahar hokimligidan	Shahar korxona va tashkilotlaridan
30.	**62-band.** Bosh vazir o‘rinbosarlari A.Ramatov, J.Qo‘chqorov, J.Xodjayev, Z.Mahkamova, Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov), vazirliklar, idoralar xo‘jalik birlashmalari va tijorat banklari rahbarlari bilan birgalikda **bir oy muddatda** Samarqand viloyati hokimligi hamda mutasaddi vazirliklar va idoralar tomonidan **3-ilovaga** muvofiq ko‘tarilgan muammoli masalalarni muhokama qilish uchun Vazirlar Mahkamasi Rayosatiga kiritsin. Mazkur masalalar Vazirlar Mahkamasi Rayosatida atroflicha muhokama qilsin va natijasi yuzasidan chora-tadbir rejasi tasdiqlanib, ijroga qaratilsin.	Bir oy muddatda	Shahar hokimining barcha o‘rinbosarlari	Shahardagi korxona va tashkilot rahbarlari